

ZAMONAVIY SHE'RIYATIDA BADIY OBRAZLILIK MASALASI
(HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHE'RLARI MISOLIDA)

Mingboyeva Zulhayo Ulug'bek qizi

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'quvchisi

Xaitov Xusniddin Xasanovich

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdiyevaning she'rlaridagi obrazlilik va obraz hamda ularning tahliliga oid fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek, shoiraning badiiy niyati, she'rlaridagi g'oyalarini aks ettirishda obrazning ahamiyati xususida mushohada qilingan.

Kalit so'zlar: badiiy obraz va uning turlari, fojeona, estetik kategoriyalar, she'r, tahlil, badiiyat.

**ПРОБЛЕМА ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ОБРАЗНОСТИ В СОВРЕМЕННОЙ
ПОЭЗИИ (НА ПРИМЕРЕ СТИХОВ ХАЛИМЫ ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ)**

Аннотация: Данная статья содержит комментарии к образности и образу в стихах народного поэта Узбекистана Халимы Худойбердиевой и их анализ. Также были отмечены художественный замысел поэтессы и значение образа в отражении ее идей в ее стихах.

Ключевые слова: художественный образ и его виды, комизм, трагедия, эстетические категории, поэзия, анализ, искусство, литература.

**THE PROBLEM OF ARTISTIC IMAGERY IN MODERN POETRY
(ON THE EXAMPLE OF KHALIMA KHUDOYBERDIYEVA'S POEMS)**

Annotation: This article contains comments on the imagery and image in the verses of the national poet of Uzbekistan Halima Khudoyberdiyeva and their analysis. The poetess's artistic conception and the significance of the image in reflecting her ideas in her poems were also noted.

Key words: artistic image and its types, comic, tragedy, aesthetic categories, poetry, analysis, art.

She'riyatda betakror obrazli fikrlash shoirning mahoratiga bog'liq. Obrazlilik ta'minlangan ijod mahsulida tasviriylik puxta bo'lish bilan bir qatorda, badiiy estetik qarash ham mujassam bo'ladi. Badiiy asar bor ekan, xarakter, personaj, timsol, obraz tushunchalari bor. Kichik bir to'rtlikda xarakterning tiniq bir aksi, kichik bir hikoyada obrazning kayfiyati, munosabati tasvirlanadi. "Badiiy adabiyotning ikkiyoqlama mohiyat, ya'ni, bir tomondan san'at sohasi, ikkinchi tomondan ijtimoiy ong shakli ekanligi; badiiy adabiyotni san'atga doxil etuvchi obrazlilik va obraz tushunchalari ayni shu bo'limda o'rganiladi" [1, 3].

Ya'ni adabiyotshunoslik asoslarida keng qamrovli tushunchalardan biri ham obrazlilik deyish mumkin.

Shoira Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida ham obraz va obrazlilik masalasi muhim ahamiyat etadi. Har bir she'ridagi o'quvchiga bermoqchi bo'lgan samimiyatga yo'g'rilgan fikri va lirik qahramon kayfiyati, obraz orqali namayon bo'lgan. Xususan, muallifning "Daraxt o'z joyida", "Kumushning o'limi", "Enamning aytganlari" she'rlaridagi obrazlilikni o'rganar ekanmiz, uning badiiy mahoratini his qilamiz.

*Daraxtlar doim o'z joyida muqim,
O'ylamay bir qadam tashlamas xato.
Daraxtlar ko'tarar doim o'z yukin,
Bir mevasin ortmas birovga hatto. [2, 185]*

Ushbu to'rtlikdagi daraxt obrazi xuddi inson kabi jonlantirilgan bo'lib, lekin tevarak-atorfidagilarga og'ir yukini tushirmaydiganlar tasvirlanadi. Bunda ijodkor obraz haqida gapirmaydi, aksincha badiiy so'z bilan voqelikni chizadi. Natijada obrazlilik namunasi hosil qilinadi. Shoira she'rda aytmoqchi bo'lgan fikrni, ya'ni yuk tushirmaslik pand-nasihatini qilmaydi, biroq obraz vositasida o'quvchining e'tiborini tortadi. Bunda o'quvchi solishtirish orqali badiiyatga qorishtirilgan muallif g'oyasini anglay boshlaydi. Ushbu parchadagi daraxt obrazida ham xarakter, ham kayfiyat ko'ribg turibdi. Uning insonga nisbati ham o'quvchiga ayon. Estetik kategoriyasi jihatdan daraxtlar insonga qiyoslaganda beziyon, foydasi ko'proq teguvchi etib ko'rsatilgan va bu kategoriyaning ulug'vorlik darajasida baholanadi.

Ozod Sharafiddinov "Ijodni anglash baxti" asarida "She'rlarini o'qisangiz, har xil poetik taqqoslar, ajoyib o'xshatishlar, nozik qochi- rimlar, maqollar, matallar, so'z o'yinlari, xalq- ning turli rasm-rusumlaridan tug'ilgan obrazlar bir- biriga mingashib, yopirilib kelganday taassurot qoldiradi" [3, 262] degan edi. Men Halima Xudoyberdiyeva she'rlarini o'qir ekanman, xuddi bu Mirtemir ijodiga bildirilgan fikrlar shoiraga atalgandek tuyildi.

*Gulim", yonar Otabek, ichdan qulab ketgan tog':
-Zaynab! Senga ming la'nat, taloqsan Sen, ket, taloq.
Kumush yarq ko'zin ochdi bu so'zni eshitgan choq,
Qayta yumdi... Yo rabbiy, shu so'zmidi bor ilinj?!
So'ng Otabek ko'ksiga bosh qo'yib jon berdi tinch. [4, 56]*

Bu bandda obrazlar – Otabek, Kumush va Zaynab. Ayni parchada obraz xarakteri jihatdan Otabek jahl otida, Zaynab aybdor, Kumush esa jabrdiyda holatda "O'tkan kunlar" romaniga ishora tarzda gavdalantirilgan. Ushbu voqelik qalamga olinar ekan, bevestia shoira asar qahramonlari yordamida obrazlilikni ta'minlashga erishganligini ko'rish mumkin. Muallif ushbu obrazlardan foydalanib, asarning butun fojeaviy yakunimi o'quvchi ko'z o'ngiga keltiradi. Estetik kategoriyasi jihatdan tubanlikda qolgan shaxs sifatida ko'rsatilgan Zaynabga xos xususiyat bu kategoriyaning tubanlik darajasida baholanadi.

Hayot , qiyin hayot edi, o' bolama,

Onang tili novvot edi, o' bolama.

Tiriklikning bor yuklari yelkasida

Onang ayol, ham ot edi, o' bolama. [5, 38]

Ushbu parchada obrazlar bola va ona. So'zlovchi – buvi. Buvining nabiraga aytganlaridan ona obrazi o'quvchi tafakkurida shakllanadi. Ko'rish mumkinki, ona hayot qiyinchiliklarini chekkan, obraz xarakteri jihatidan shirinso'zligi, mehnatkashligi, ham ona, ham ota bo'lganligini ayon. Obrazlar yordamida o'sha davr jarayonlari ko'z oldimizda gavdalanadi. Estetik kategoriyasi jihatdan davr fojeasi: qiyinchiliklar, hayot sahnasidagi bir ayolning roli fojeona ta'riflanadi. Ya'ni, so'zlarida afsus, nadomat, achinish hislari bor. Bu kategoriyaning fojaviylik darajasida baholanadi, deyish mumkin.

Shoiraning yana bir she'rida obraz ta'sviri quyidagidek tus oladi:

Oy tutildi, quyosh so'ndi –

Otam o'ldi, do'stlarim.

Oh, otamning so'nggi-so'nggi

“Bo'tam” lagan so'zlari. [6, 84]

She'rdagi eng katta, ammo yashirin obraz – muallifning o'zi. Aslida, she'rda o'zining kayfiyatini boshqa bir obraz orqali ochib bergan. Aristotel “Poetika” asarida xarakter “qandaydir maqsadga amal qilish, ...o'ziga xos, haqqoniy, izchil bo'lishi kerak”ligini aytgan va “voqealarda xarakterlardagi kabi mantiqqa zid hech narsa bo'lmas”ligi lozimligini ta'kidlagan. Shoira she'rda qo'llagan obraz ota obrazidir. Obraz kayfiyatini, xarakterini aynan oxirgi ikki misra oydinlashtirgan, ya'ni “bo'tam” deb erkalashlari va so'ngso'zi ham xuddi shu bo'lganligidadir. Bunda ota roli va taqdiri fojeona ta'riflanadi. Ya'ni, so'zlarida sog'inch, achinish hislari bor. Shu bilan birgalikda anglash mumkinki, otadan erta yetim qolgan qiz taqdiri tasvirlangan. Bu holatni ham kategoriyaning fojaviylik darajasida ekanligini ta'kidlash mumkin.

Bir-birini suyagan O'zbekiston tog'lari,

Ne tog', tik cho'qqilardan oshsa arg'umoqlari,

Arg'umoqlar yolida bo'ron turgan choqlari

Qimiz tutdim botirga. [2, 131]

Yuqoridagi “O'zbekiston dalasi” nomli she'rdan olingan bandeda bir necha obraz bor. Bu o'quvchini rang-barangligi bilan o'ziga jalb etadi. She'rda tog'lar, arg'umoqlar va bo'ron obraz qilib foydalanilgan, ya'ni obrazlar hamda tashxis san'ati yordamida tabiatni jonlantirib, fikr-mulohazalarini o'quvchiga kengroq tarzda yetkazmoqda. Bu kategoriyaning ulug'vorlik va go'zallik darajasida.

Xulosa qilib aytganda, Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida obraz va obrazlilik betakror, yaqqol ko'ngil ko'ziga tashlanadigan jihatlari bilan bo'rtib turadi. Ayniqsa, obrazning xarakteri va kategoriyasi tomonlama fojeona darajasi she'rlarida o'quvchiga ta'sir qilish yuqori deyish mumkin. Qolaversa, insonni ulug'lab, go'zallikni madh etilgan misralairda ham rang-barang obrazlilik shoira she'riyatining o'ziga xos ekanligini

ko'rsatadi. Zamonaviy she'riyatimiz vakillari orasida Halima Xudoyberdiyeva ijodi ana shunday obrazlilikining bektakrorligi bilan ajralib turadi, degan xulosaga kelish imkoni beradi, bizningcha.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Xudoyberdiyeva H. Saylanma . – Toshkent: Sharq, 2020. – B. 185, 1.
3. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004. – B. 262.
4. Xudoyberdiyeva H. Buyuk qushlar . – Toshkent: O'zbekiston, 2012. – B. 56.
5. Xudoyberdiyeva H. Muqaddas ayol . – Toshkent: G'afur G'ulom, 1987. – B. 38.
6. Xudoyberdiyeva H. Buyuk qushlar. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1977. – B. 84.